

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Shermuhammadov

Xalq ardog'idagi til - mangu barhayot.....	6
--	---

PEDAGOGIKA

T.Egamberdiyeva, O.Ashurova

Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarining ekoestetik madaniyatini rivojlantirishning tahliliy omillari.	9
---	---

U.Maqsudov, R.Rahmonova

Ommaviy axborot vositalari mediasavodxonlik kompetensiyalarini shakllantirish obyekti sifatida.....	12
---	----

M.Suyunova

Pedagogik tadqiqotlarning o'ziga xos xususiyatlari va uni tashkil etish tamoyillari.....	17
--	----

N.Saidova, B.Abdullayeva

Bo'lajak boshlangich sinf o'qituvchilarining axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirishni modeli	20
---	----

X.Tojiboyeva

O'smir yoshdagi o'quvchilarda gender o'z-o'zini anglash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari.....	24
--	----

A.Kalliyev

Ijodkor talabalar bilan ishlashda pedagoglik mahorati va usullar	27
--	----

I.Usmonaliyev

Tarixiy tafakkur orqali bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash omillari usullarini pedagogik taxlili.....	32
--	----

FALSAFA, SIYOSAT

A.Yuldashov

O'zbekistonda intellektual mulk huquqi muhofazasini ta'minlashda ta'limning ahamiyati.....	37
--	----

Q.Aliqulov

Innovatsion va transformatsion o'zgarishlarning yoshlar iqtisodiy faolligiga ta'siri	41
--	----

TARIH

X.Boymirzayev, Z.Jobborov

Sovet hukumatida 20-30 yillarda amalga oshirilgan targ'ibot-tashviqot ishlari tarixidan.....	46
--	----

X.Mamajonov

Amir Temur davlati va oltin o'rda o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvi va diplomatik aloqalarning boshlanishi.....	49
--	----

A.Aloxunov, A.Mamasiddiqov

Farg'ona vodiysidagi dalvarzin yodgorligining mudofaa tizimi xususida	53
---	----

A.Abduxalimov

Vodiy viloyatlari qishloq aholisining ijtimoiy jihatdan muhofaza qilinishi	57
--	----

I.Yusupov

O'zbekistonda hududiy telekanallarning tashkil etilishi va rivojlanish tarixi	62
---	----

I.Turdiyev

Jizzax vohasi aholisining oila va nikoh bilan bog'liq an'analar va Marosimlari	67
--	----

Liang Yun, Xi Tongyuan, Ra'nogul Yusuf, N.Kambarov

O'zbekistonning Samarqand shahridagi Sazagan yodgorligining M11 qabrida olib borilgan qazuv tadqiqotining hisoboti	70
--	----

ADABIYOTSHUNOSLIK

L.Axmadaliyev

Po'latjon Qayyumiy zamondoshlari xotirasida	85
---	----

IJODKOR TALABALAR BILAN ISHLASHDA PEDAGOGLIK MAHORATI VA USULLAR

МЕТОДЫ И ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО В РАБОТЕ С ТВОРЧЕСКИМИ
СТУДЕНТАМИ

METHODS AND PEDAGOGICAL SKILLS IN WORKING WITH CREATIVE STUDENTS

Kalliyev Abatbay Nagmetullayevich¹¹Kalliyev Abatbay Nagmetullayevich

– O'zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali
Akademik xonandalik va opera tayyorlash kafedrası
o'qituvchisi, Qoraqalpog'iston Respublikasi san'at
arbobi.

Annotatsiya

Maqolada ijodkor talabalar bilan ishlash jarayonida pedagogdan talab etiladigan kasbiy mahorat va amaliy tajribalarning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr-mulohaza yuritilgan. Shuningdek, madaniyat va san'at sohasida talaba yoshlarni professional va mahoratli san'atkor etib tarbiyalash, ularning ko'nikma va iqtidorlarini yanada oshirishda pedagog nimalarga e'tibor qaratishi kerakligi yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan. Ijodkor talabalarni nafaqat nazariya va amaliyot orqali, balkim pedagogik mahorat bilan ham sohaga qiziqtirish, ijodiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarish va rivojlantirishning ahamiyatiga alohida urg'u berilgan.

Аннотация

В статье даны отзывы об особенностях профессиональных навыков и практического опыта, которые требуются от педагога в процессе работы с творческими учениками. Также даны предложения и рекомендации о том, на что должен обратить внимание педагог при воспитании студенческой молодежи в сфере культуры и искусства профессиональными и талантливыми художниками, дальнейшем повышении их навыков и талантов. Особо подчеркивается значение заинтересованности творческих студентов в области не только теории и практики, но и педагогического мастерства, выявления и развития их творческих способностей.

Abstract

The article reflects on the specifics of professional skills and practical experience required by a teacher in the process of working with creative students. Also, in the field of culture and art, proposals and recommendations were made on what the pedagogue should pay attention to in educating young people as professional and skilled artists, further improving their skills and talents. Particular emphasis is placed on the interest of creative students in the field not only through theory and practice, but also with pedagogical skills, the importance of bringing their creative abilities to the surface and development.

Kalit so'zlar: pedagogika, mahorat, talaba, nazariya, ijodiy, jarayon, ishlashish, rivojlanish, tarbiya, xususiyat, san'at, o'qitish, amaliyot, sifat, usul.

Ключевые слова: педагогика, мастерство, ученик, теория, творческий, процесс, продуктивность, развитие, образование, характеристика, искусство, преподавание, практика, качество, метод.

Key words: pedagogy, skill, student, theory, creative, process, productivity, development, education, feature, art, teaching, practice, quality, method.

KIRISH

Ijodkor talabalar bilan ishlashishda pedagog o'ziga xos pedagogik usullardan va kasbiy mahorat unsurlaridan foydalanishi zarur. Bu bejiz emas, albatta. Chunki, qobiliyat va iqtidorni yuzaga chiqarish faqat nazariya va amaliyot bilan chegaralanib qolmaydi. Ijodiy ta'lim muassasalari pedagoglari avvalo, o'zlari ijodkor va kreativ fikrlaydigan insonlar bo'lishi zarur. Ayniqsa, bu oliy ta'lim muassasalari bo'lsa, unda pedagogdan alohida mas'uliyat talab etiladi. Negaki, OTM ta'lim berishning yuqori cho'qqisidir. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev: Bugungi shiddatli zamon oldimizga qanday murakkab vazifalarni qo'yayotganini barchamiz ko'rib, bilib turibmiz. Ularni hal etish va ezgu maqsadlarimizga yetish, dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'lish uchun xalqimizni, avvalambor, yoshlarimizni ilm-fan, ma'rifat va ma'naviyat, taraqqiyot yutuqlari bilan qurollantirishimiz kerak. Bugungi kunda oliy ta'lim tizimini yangi sifat bosqichiga ko'tarish, sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etish, oliygohlarimizni ta'lim va ilm-fanning yirik markazlariga aylantirish bo'yicha boshlagan katta ishlarimizni jadal davom ettirishimiz lozim [1:1] – degan edi. Haqiqatan bu ishlarni samarali amalga oshirishda barcha pedagoglar birdek mas'ul bo'lib bor mahoratimizni ishga solib, yurtimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shadigan yoshlarni tarbiyalashimiz zarur.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ijodkor talabalar boshqa ta'lim muassasalari talabalaridan nimasi bilan ajralib turadi? Avvalo ijodda inson omili birinchi o'rinni egallaydi. Ya'ni, talabalarining imkoniyati va layoqati, mahorati nazariya va amaliyot bilan qorishib ketmog'i kerak. Shu bilan birga, talabaning qobiliyatini ham mukammallashtirish, rivojlantirishda pedagogdan alohida mahorat talab qilinadi. Masalan, talabalar bilan ishlash jarayonida ularga musiqa san'atini o'rgatishimiz kerak. Bunda bizga nazariya va amaliyot yordam beradi. Lekin musiqani o'rgatishda pedagog ko'proq kasbiy mahoratidan foydalanilsa, ko'zlangan maqsadga tezroq erishadi. Pedagog mahoratli bo'lsagina talabalarni mohir san'atkor etib chiqarish mumkin. Ko'pchilik taniqli san'atkorlarni ijodi va hayot yo'liga nazar tashlasak? ular mohir va o'z oldiga ijodiy maktab yaratgan pedagoglar ekanligiga guvoh bo'lasiz. Pedagogik mahorat – yillar davomida o'qituvchi tomonidan talabalar bilan ishlash jarayonida to'plangan metodlar majmuyidir.

Pedagogik mahorat tizimi quyidagi o'zaro biri-biri bilan bog'liq bo'lgan asosiy komponentlaridan iborat:

1. Pedagogik insonparvarlik talablariga bo'ysunishi.
2. Kasbga oid bilimlarni boshqa fanlar bilan aloqadorlik mukammal bilish.
3. Pedagogik qobiliyatga ega bo'lish.

Pedagogik texnika sirlarini puxta egallashi kerak [2:230].

Talabalar bilan ishlashda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish va ijodiy pedagogik tahlillar yordamida dars o'tilsa, talabaning asarni o'rganish darajasi yuqori bo'ladi. Madaniyat va san'at sohasida talabalarga musiqa o'rgatish kerak. Bunda pedagog musiqaning nazariy asoslarini talabaga yaxshi tushuntirishi, amaliy chertib tinglatishi, mashqlar orqali ijro ettirishi kerak. Talaba bu mashqlarni qayta-qayta amalga oshiradi. Ijodkorga asar o'rgatishda uning qobiliyat darajasi va yo'nalishi alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolani tayyorlashda musiqa ilmi, ijodiy pedagogika, pedagogik mahorat uyg'unligidan foydalanildi.

Mazkur sohaga oid tarixiy adabiyotlarda zikr etilgan ma'lumotlarga asoslanildi. X-XI asrlarda madaniyat, san'at va adabiyot rivojlangan va taraqqiy etgan davr bo'lib, bunda musiqachilar haqidagi ma'lumotlarni qamraydigan adabiyot yodgorliklardan biri "Qobusnoma"dir... Asarning o'ttiz oltinchi bobida, ya'ni "Hofizlik va sozandalik zikrida" aytilganki, "hofiz bo'lsang, xushfe'l, quvnoq bo'l, hamisha pok, mutayyab va xush zabon bo'ng'il va o'z ishinga mashg'ul bo'lg'il, yaramas xulq, qo'pol bashara bo'lmag'il. Hamma vaqt og'ir yo'llarni chertmag'il, chunki barcha mashq va ohangni bir hilda chertish shart emasdur, nedinkim odamlarning barchasi bir xilda bo'lg'on ermaslar, ta'blari ham bir-biriga muvofiq ermas, ya'ni xalq muxtalifdurlar" deyilgan. "Qobusnoma" asari kitobxonni o'ziga jalb etadigan darajada boy mazmunga ega bo'lib, unda san'at sohasida endigina o'z faoliyatini boshlayotgan yosh mutaxassislarning ta'lim va tarbiyasi uchun muhim bo'lgan jismoniy hamda aqliy fazilatlar o'ta zukkolik bilan tahlil qilinadi[3:62].

NATIJA VA MUHOKAMA

Bilimlar sifati, uning puxtaligi va tafakkurning ijodiy komponentlari bevosita o'qitish xarakteri bilan bog'liq. Shuning uchun ham shaxs, o'quvchi va talabaning ijodiy rivojlanishi o'qituvchining an'anaviy metodlarini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni shaxs tafakkurining tuzilishini belgilaydigan metodologik asos hisoblanadi. Uni izchillik doirasida uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshiradi. Bunda o'quv faoliyatidan foydalanish, asosiy ma'lumotlarni egallash, malakalarni shakllantirish kabilarni o'ziga maqsad qilib qo'yadi. Har qanday ijodiy faoliyat bilimlarini rivojlantirishda bevosita tajribaga tayanish zarur. Shu jihatdan ijodiy faoliyat o'qitish jarayoni bilan uzviy munosabatda bo'ladi. Buning natijasida o'qishga tayyorgarlik, ijodiy sodir bo'ladi, bilish turlari rivojlanadi. Ijodiy faoliyat jarayonida bilimlarni o'zlashtirishda o'quv materiallarini umumlashgan holda qayta ishlash yo'li bilan eslab qolish va yodlashdan iborat bo'ladi. Bunga muvofiq o'qituvchini ijodiy faoliyatga tayyorlashda uchta vazifasi ajratiladi.

1. O'qitishning nazariy asoslarini o'zlashtirishni ta'minlash;
2. Nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash qobiliyatiga tayyorlash;
3. Ijodiy pedagogik faoliyatni shakllantirish.

Pedagogik adabiyotlarda reproduktiv va produktiv (ijodiy faoliyatlar hamda qarama-qarshi va o'zaro bir-birini to'ldiruvchi tomonlar mavjud[4:336].

Talabalar bilan ishlashda mohir pedagog ijodiy pedagogikaning ahamiyatini chuqur anglashi zarur. Pedagog yana shuni anglashi kerakki, agar talaba qaysidir asarni mukammal o'zlashtira olmayotgan bo'lsa, demak talabaga dars jarayonidan tashqari omillar ham ta'sir qilgan bo'lishi

PEDAGOGIKA

mumkin. Pedagogik mahoratning xususiyatlaridan biri faqat talabaga o'quvchi sifatida emas, odam sifatida ham e'tibor qaratish, uning ichki dunyosi, fikr-xayollari bilan qiziqish va chalg'ituvchi omillarga qarshi talaba bilan birga kurashishdir. Bu ham aslan pedagogik mahoratning unsurlaridan biri hisoblanadi. Talaba pedagogikaning, pedagogik obyekt va subyekting asosidir. Pedagog – tadqiqotchilarning fikricha, pedagogik obyektining o'ziga xosligi quyidagilardan iborat:

1. Inson – tabiatning jonsiz moddasi emas, balki o'zining individual sifatleri, ro'y berayotgan voqealarning idrok qilishi va ularga o'zicha baho beradigan, takrorlanmaydigan faol mavjudotdir. Psixologiyada ta'kidlanganidek, har bir shaxs-takrorlanmasdir. U pedagogik jarayonning o'z maqsadi, ishtiyoqi va shaxsiy xulqqa ega bo'lgan ishtirokchisi hamdir. Shunday qilib, pedagogik faoliyatning obyekti bir paytning o'zida bu faoliyatning subyekti bo'lib hisoblanadi.

2. Pedagog doimo o'zgarib, o'sib boradigan inson bilan ishlaydi. Ularga yondoshishda bir xil qolip, shakllanib qolgan xatti-harakatlardan foydalanish mumkin emas. Bu esa pedagogdan doimo ijodiy izlanib turishni talab qiladi.

3. Talabalarga pedagogdan tashqari atrof-muhit, ota-ona, boshqa fan o'qituvchilari, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy hayot ham, ba'zan sezilmaydigan, ba'zan esa har tomonlama bir necha yo'nalishda ta'sir etadi.

Shuning uchun ham pedagog mehnati bir vaqtning o'zida jamiki ta'sirlarga va talabaning o'zida paydo bo'lgan fikrlarga tuzatishlar kiritib borishni nazarda tutadi. Tarbiya jarayoni o'z-o'zini tarbiyalash bilan uyg'unlashgan holda olib borilishi zarur [5:7].

Ijodkor talabalar bilan ishlaydigan pedagog mahoratini tahlil qilish uchun uning ochiq darsi, talabalarining muvaffaqiyatlari, metodikasini o'rganish kerak bo'ladi. Ta'lim berishning nazariyasi va amaliyotida o'quvchilarning bilim olish harakatlarini faollashtirish eng dolzarb muammolardan biri sanaladi. Keyingi vaqtlarda pedagoglarning diqqati bilim orttirishning muloqot yuritish shakliga asoslangan o'qitishning interfaol shakl va uslublarni o'zlashtirishga qaratilgan. Bunday interfaol shakl va uslublarni ayniqsa ijodkor talabalar orasida keng qo'llash maqsadga muvofiqdir. Ta'lim berish jarayoni quyida ko'rsatilgan talabalarga amal qilgan taqdirda samarali bo'lishi va yaxshi natijalar berishi amalda isbotlangan:

- o'quvchilar ta'lim olish uchun ochiq va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan munosabat va hamkorlikka faol kirishib ketganlarida;
- o'z faoliyatini tahlil qilish va shaxsiy salohiyatini amalga oshirish uchun imkonga ega bo'lganlarida;
- ular yaqin vaqt ichida o'z hayoti va professional faoliyatida duch kelishi muqarrar bo'lgan vaziyatga amaliy jihatdan tayyorlanib olishlariga imkoniyatlari bo'lganida;
- o'zlariga ishonishlari, o'zlarini ifodalashdan qo'rqmasliklari, xatoga yo'l qo'yganda ham ular bu faoliyatlari uchun muhokama qilinmasligi va salbiy baholanmasligini bilganlarida [6:269].

Ijodkor shaxslarni o'qitish asosan o'quv mashg'ulotlari jarayonida amalga oshiriladi. O'quv mashg'ulotlari jarayoni talabalarni aynan ijodiy fikrlashga o'rgatish uchun loyihalashtirilgan bo'lsagina, fikr yuritish rivojlanishi mumkin. Bunda albatta o'qituvchidan kasbiy bilim, mahorat, qobiliyat talab etiladi. Shuning uchun o'qituvchilik katta san'atdir. Bu san'atga u yoki bu pedagog osongina, o'z-o'zidan erisha olmaydi. O'qituvchining pedagogik mahorati, asosan, sinfda auditoriya mashg'ulotlarida yaqqol ko'rinadi. Chunki, o'quv mashg'ulotlari o'zining mazmun-mohiyatiga ko'ra pedagogning asosiy ishidir. Ta'lim jarayonida o'qituvchi bilan talaba o'rtasida o'zaro jonli til muloqoti fikr almashinuv munosabatlarida samimiy hurmat va asosiy maqsadga erishishda yaqin hamkorlik lozim.

Buning uchun pedagog, avvalo, talabalarda o'qishga bo'lgan qiziqish uyg'ota olishi talab etiladi. Pedagog talabalarining o'qishga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishda turli usullardan foydalana olishi kerak. Jumladan,

- o'qitishda rivojlantiruvchi metodlardan unumli foydalanish;
- dars faoliyatida noan'anaviy usullarni qo'llash;
- darsda muammoli o'qitish va ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish;
- dars sifatini yuqori darajada ko'tarishga erishishda didaktik kategoriyalar bo'yicha tahlil qilishni o'rganish [7:360].

Dars jarayoni o'quvchining qiziqishi va pedagogning o'rgatishi orqali o'rganilgan har qanday san'at namunasi pedagog mahorati va mehnatining mahsuli hisoblanadi. Ijodkor talabalar bilan yakka tartibda ishlash mazkur pedagogkaning o'ziga xos tomonlaridan biridir. Bitta talabaga bitta

musiqa, qo'shiq yoki boshqa san'at namunalarini o'rgatishning o'zi oson ish emas. Bunda pedagog mahorati orqali boshqa ta'sirchan usullardan foydalanishi zarur. Talabalarga musiqa tarbiyasini o'rgatish, ular vositasida yoshlarni estetik tarbiyalashda quyidagi ta'sirchan vositalardan foydalaniladi:

- san'atshunoslik va estetik tarbiya bo'yicha tarixiy-nazariy va amaliy bilim hamda tajribalarni estetik tarbiya jarayonida qo'llash;
- musiqaning tarbiyaviy imkoniyatlarini ochish, musiqa mazmunini tahlil qilish, badiiy idrok qilish;
- musiqa bo'yicha turli tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish, turli tanlovlarda ishtirok etish (bunda faqat bayram yoki tanlovda ishtirok etish maqsad emas, balki undan vosita sifatida foydalangan holda talabalarining estetik tarbiyalanganlik darajasini aynan musiqa tarbiyasi orqali oshirishga erishish zarur);
- havaskorlik faoliyatlari mazmunini belgilashda talabalarining qiziqishlari, talab va ehtiyojlarini hisobga olish;
- talabalar bilan individual ishlashga alohida e'tibor qaratish[8:362].

Yusuf Xos Hojib shunday deydi: "Dunyoda ikki turli inson haqiqiy inson sanaladi: biri – o'rgatuvchi, biri – o'rganuvchi". Ijodkor talabaga ta'lim-tarbiya berishda pedagog faqat mendan o'rganadi degan xulosaga kelmasligi maqsadga muvofiqdir. Agar talaba musiqani yaxshi o'rgansa yoki o'rganilishi kerak asar yuzasidan o'qituvchiga o'z fikrlarini bildirsa pedagog talabani tinglashi va agar to'g'ri bo'lsa birgalikda yana chuqurroq o'rganishi kerak. Yana o'rgatgan narsalarini, ayniqsa, ijodkor talabadan ertasi kunda dars mashg'ulotlarida qayta so'rashi va talab qilishi shart. Pedagogik talab tarbiyaning eng muhim usullaridan biridir. Talab – bu o'quvchining turli vazifalarni bajarishi, ijtimoiy xulq-atvor mezonlarini ifodalashi, u yoki bu faoliyatda qatnashib bajarishi zarur bo'lgan aniq bir vazifa sifatida namoyon bo'lishi va u yoki bu harakatda rag'batlantiruvchi yoki uni to'xtatuvchi bo'lishi, oqilona harakatlarga undovchi bo'lishi mumkin. Bu ham o'z navbatida pedagogik mahoratga bog'liq bo'ladi.

XULOSA

O'qituvchining faoliyati tufayli ta'lim puxta o'ylab chiqilgan maqsad, mazmun va dasturlar asosida olib boriladigan jarayonga aylanib, kutilgan natijalarni beradi. O'qituvchining faoliyati o'quv materiallarini bayon qilishdan, o'quvchilarda fanga qiziqishni tarkib toptirishdan, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga o'quv rahbarlik qilishdan, ularning bilim, ko'nikmalarini tekshirish, o'quv ishlariga moyilligini uyg'otish, rag'batlantirish, bilim darajalari xolis baholashdan iboratdir. O'qituvchining faoliyati ta'lim jarayonining tashqi tomonini tashkil qiladi, chunki u o'qitadi, ta'lim beradi [9:87]. Ijod sohasidagi pedagoglar doimo ijodiy izlanishlardan to'xtamasligi faqat talaba emas, o'zlarining ijodiy qobiliyatlarini, pedagogik mahoratini rivojlantirib borishi kerak. Chunki bilmi, tajriba va ko'nikmasi yetuk pedagoglarga talabalarga namuna bo'la oladi. O'z bilimlarini mustaqil oshirish uchun quyidagi bo'limlardan iborat individual reja tuzib olishlari tavsiya etildi. O'qituvchining faoliyati tufayli ta'lim puxta o'ylab chiqilgan maqsad, mazmun va dasturlar asosida olib boriladigan jarayonga aylanib, kutilgan natijalarni beradi.

O'qituvchining faoliyati o'quv materiallarini bayon qilishdan, o'quvchilarda fanga qiziqishni tarkib toptirishdan, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga o'quv rahbarlik qilishdan, ularning bilim, ko'nikmalarini tekshirish, o'quv ishlariga moyilligini uyg'otish, rag'batlantirish, bilim darajalari xolis baholashdan iboratdir. O'qituvchining faoliyati ta'lim jarayonining tashqi tomonini tashkil qiladi, chunki u o'qitadi, ta'lim beradi [10:87]. Ijod sohasidagi pedagoglar doimo ijodiy izlanishlardan to'xtamasligi faqat talaba emas, o'zlarining ijodiy qobiliyatlarini, pedagogik mahoratini rivojlantirib borishi kerak. Chunki, bilmi, tajriba va ko'nikmasi yetuk pedagoglarga talabalarga namuna bo'la oladi. O'z bilimlarini mustaqil oshirish uchun quyidagi bo'limlardan iborat individual reja tuzib olishlari tavsiya etildi.

1. G'oyaviy-siyosiy saviyani oshirish.
2. Ilmiy-nazariy bilimni oshirish.
3. Metodik bilim va mahoratni oshirish.
4. Pedagogik va psixologik nazariyani yanada puxta o'rganish.

Shu bilan birga, o'qituvchilarning individual rejalari bir o'quv yiliga mo'ljallab tuziladi va bajariladigan har bir ishning kalendar muddati, o'qiladigan adabiyotlarning nomi va avtorlari hamda ularni o'rganish formalari ko'rsatilgan bo'ladi. Umumta'lim jarayonida ishtirok etayotgan barcha mutaxassislardan: o'z bilimlarimizni izchil boyitib borishimizni, yangi axborotlarni o'zlashtirishni,

PEDAGOGIKA

davr talablarini chuqur anglay bilishni, yangi bilimlarni izlab topish va ularni talabalarga o'rgatishda turli kreativ, ya'ni tanqidiy fikrlash va ijobiy ta'riflar berish, yangi olingan bilimlarni qayta ishlash va o'z amaliy faoliyatimizda samarali qo'llay bila olishimizni talab qiladi[11:101].

Ijodkor talabalar bilan ishlashda ko'proq individual tarzda ishlash tizimiga alohida urg'u bergan holda dars samaradorligini oshirish zarur. Talabalar faqat darsdagi mashg'ulotlar bilan shegaralanib qolmasdan qo'shimcha kompleksli ta'lim-tarbiya ishlarini olib borishda pedagoglarning faolligini oshirish, ijodkor talabalarning imkoniyat darajasidan kelib chiqqan holda professional asarlarni bosqichma-bosqich mukammal o'rgatib borish kerak. Shuni unutmash kerakki, mazkur jarayonlarga salbiy ta'sir ko'rsatadigan vosita va unsurlarni pedagog o'z mahorati bilan bartaraf eta oladi va talabani kelajakda yaxshi san'atkor bo'lishiga zamin yaratadi. Mohir pedagog iqtidorli talabalar bilan ishlashda talabalarni darsga qiziqtirish usullarini yaxshi bilishi, ular bilan hamkorlik muhitini yaratishi kerak. O'qituvchi o'quvchilarni faollashtiradigan, o'zi va o'rganuvchi uchun qulay bo'lgan yo'llarni, usul va uslublarni, o'qitish shakllari, metod va vaziyatlarni izlaydi, zamonaviy pedagogik texnologiyaga suyanib, o'quv jarayoni samaradorligini oshiradi. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatib, o'quv jarayonining yuqori sifat va samaradorligiga erishadi[12:5]. Shunday ekan, ijodkor talabalar bilan ishlashadigan pedagog o'z mahoratini zamonaviy pedagogika usullari bilan ham doimiy tarzda boyitib borishi zarur hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. "O'zbekiston o'qituvchi va murabiylariga"// gaz. O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – Toshkent, "Sharq". 2021. №40. (Mirziyoyev Sh. "Uzbekistan teachers and murams"// gas. Literature and art of Uzbekistan. – Tashkent, "Sharq". 2021. №40)
2. Musurmanova O. Umumiy pedagogika. – Toshkent: Yoshlar. 2020. – 376 b. (Musurmanova O. General pedagogy. – Tashkent: Yoshlar. 2020. – 376 p)
3. Jamolova D. O'rta asr sharq allomalarining musiqiy qarashlari //jur. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Xabarlarlari №3. – Toshkent.: 2019. Donishmand ziyosi. – 99B. (60-63-betlar). (Jamalova D. Musical views of medieval Eastern scholars // jur. Posts of the State Institute of art and culture of Uzbekistan №3. – Tashkent.: 2019. Donishmand ziyosi. – 99p. Pp. 60-63)
4. Rashidova Z. Madaniyat va san'at sohasi pedagogikasida ijodiy ishlab chiqarishning mohiyati//jur. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal. №4-1 (88), Xorazm Ma'mun akademiyasi, 2022 y. – 359 b. – Bosma nashrning elektron varianti (Rashidova Z. The essence of creative production in the pedagogy of the field of culture and art //jur. Bulletin of the Khorezm Mamun Academy: scientific journal. No. 4-1 (88), Khorezm Mamun Academy, 2022. – 359 p. Electronic print variant)
5. Qodirov Sh. Pedagogik mahorat. – Namangan, NamMPI. 2006. – 98 b. (Qadirov Sh. Pedagogical skills. – Namangan, NSU. 2006. – 98 p)
6. Asqarov A., Axrorova Z., Ro'zimatov E., Sadikova Sh., Sodikov U. Umumiy pedagogika. – Toshkent.:2018. – 330 b. (Askarov A., Akhrorova Z., Rozimatov E., Sadikova Sh., Sadikov U. General pedagogy. – Tashkent.:2018. – 330 p)
7. Qarang: Mansurbekova F. Ijodkor shaxslarni tarbiyalashda innovatsion-pedagogik usullar//konf. Folklor, til va madaniyat masalalarini ilmiy o'rganishda fan va innovatsiyalar uyg'unligi. – Toshkent.: 2021. Fan ziyosi. – 501 b. 359-362 betlar. (See: Mansurbekova F. Innovative-pedagogical methods in the education of creative persons//conf. The combination of Science and innovation in the scientific study of folklore, language and culture issues. – Tashkent.: 2021. Fan ziyosi. – 501 p. Pp. 359-362)
8. O'sha yerda (There)
9. Abdullayeva SH.A., Axatova D.A., Sobirov B.B., Saitov S.S. Pedagogika. – Toshkent.: 2014. Fan. – 506 b. (Abdullaeva Sh.A., Akhatova D.A., Sabirov B.B., Saitov S.S. Pedagogy. – Tashkent.: 2014. Fan. – 506 p.)
10. Niyozmetova T. O'qituvchining pedagogik mahorati. – Toshkent.: O'qituvchi, 1980. – 32b. (Niyozmetova T. Teaching pedagogical skills. – Tashkent.: O'qituvchi. 1980. – 32p)
11. Nishonboyeva Q. Yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishda qadriyatlarining o'rni va madaniy kompetentlik masalasi. Madaniyat va san'at sohasida malakali kadrlar tayyorlash – bosh maqsadimiz//konf. Yangilanayotgan O'zbekiston taraqqiyotida madaniyat va san'atning o'rni. – Toshkent.: Oltin meros press. 2020. – 488 b. (100-109 betlar). (Nishbaeva Q. The role of values and the issue of cultural competence in increasing the intellectual potential of young people . Training of qualified personnel in the field of culture and art – our main goal//conf. The role of culture and art in the development of the renewing Uzbekistan. – Tashkent.: Oltin meros press. 2020. – 488 p. Pp. 100-109)
12. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent, O'qituvchi. 2004. – 102 b. (Yoldoshev J., Usmanov S. Basics of pedagogical technology. – Tashkent, O'qituvchi. 2004. - 102 p.)